

AHMAD YASSAVIY SHAXSINING AVLIYO OBRAZIDAGI TALQINI

(Sa`dulla Siyoyev romani asosida)

Azimova Fotima Yashinbek qizi

Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Yassaviy shaxsining romandagi tasviri haqida so`z olib borilgan. Asarda butun turk dunyosining shayx-ul mashoyixi bo`lgan, o`z ona tilini tariqat tili maqomiga ko`targan zot Ahmad Yassaviyning hayotini nafaqat bir tarixiy shaxs sifatida, balki valiylik karomati bilan siylangan, ammo oddiy insonlardek kun kechiruvchi olivjanob qalb sohibi ekanligini yoritib bergen. Sa`dulla Siyoyev o`z romanida Ahmad Yassaviyning tashqi qiyofasini emas, ichki dunyosini, ruhiyatini ochib berish uchun astoydil harakat qilgan. Muallif Yassaviyni faqat zikr aytib turgan, yo hikmat yozib, ilm bilan mashg`ul bo`lgan paytini emas, balki, uni yaqinlar, muridlar davrasida, xalq orasida yurakdan suhbatlashishlar jarayonida ham to`laqonli aks ettirishga e`tibor qaratgan.

Kalit so`zlar: valiy, tarixiylik, badiiy to`qima, tariqat, murid, karomatlar, hikmatlar, diniy-falsafiy qarashlar, manoqibnomalar, komil inson

“Ahmad Yassaviy” romani Sa`dulla Siyoyev ijodida faxrli o`rin egallaydi. Muallif bu romanni yaratish bilan tarixiy mavzuni badiiy o`zlashtirishning yangi bir ma`nosini ko`rsatdi.

“Ahmad Yassaviy” – tarixiy-biografik roman. Unda sulton ul-orifin bo`lgan zot, barcha turkiy xalqlarga dovrug`i ketgan avliyo Ahmad Yassaviy hayotining nurli yillari, ilm-fan, din, xalq osoyishtaligi yo`lidagi mehnat-u mashaqqatlari, diniy-falsafiy qarashlari, avliyolik karomatlari, komillikka erishmoq yo`lidagi sa`y-harakatlari-yu insoniy ojizliklari keng ko`lamda tasvirlab berilgan. Roman syujeti Ahmad Yassaviyning Makka safariga ketish taraddudini tasvirlashdan boshlanib, uning aql-u tafakkuri, iste`dodi bilan ilm va din yo`lidagi zahmatlari ortidan turli o`lkalarda dovrug qozonishi, ichki kechinmalari, avom taqdiriga, oddiy xalqning turfa kechmishlariga munosabati, ahli donishlar va muridlari bilan turli mavzudagi bahslari, mushkul vaziyatlarni o`tkir mushohadasi bilan bartaraf etishlari, shuningdek, Ahmad Yassaviy ruhiyatidagi tushkun holatlari kabi voqealar silsilasini o`z ichiga oladi.

Asarda Ahmad Yassaviy hayotini tasvirlash muhim o`rin tutadi. Ammo adib mana shu hayot yo`lini tasvirlar ekan, o`z badiiy g`oyalarini asar ruhiga singdirib



yuboradi. Shunday buyuk siyomoning, Turkiston o`lkasi yulduzining tarix sahnasiga chiqqan kunidan boshlab, to uzlatga chekinish vaqtiga qadar salkam oltmis yillik hayoti, shuningdek, shaxsiy qiyofasi, xarakteri, ma`naviy-ruhiy dunyosi bir roman doirasida keng yoritilgan, xolis bayon qilingan. Garchi romanda Yassaviy obrazi keng o`rin tutgan bo`lsa-da, asar syujetini harakatga keltiradigan kuch bиринчи galda tarixiy hodisalar, jarayonlarning o`zidir. Yozuvchi X-XI asr voqealarini, Yassaviy hayotidagi, qolaversa, mamlakatdagi o`zaro ziddiyat va kurashlarni yorqin gavdalantirib bergen.

Romandagi Yassaviy va uning avliyo sifatidagi obraziga to`xtalishdan oldin, avliyo so`zining mazmuni, umuman olganda esa tasavvuf ta`limotining valiylik rutbasi, tariqat yo`llari haqida ayrim ma`lumotlar va Yassaviy hayotiga doir tarixiy faktlar, fikr-mulohazalarni keltirishni, ana shundan so`nggina Yassaviyning avliyo obrazi bilan qiyoslashni maqsadga muvofiq deb bildim.

Tadqiqotimizda “avliyolik” va “valiy inson” haqida izlanish olib borar ekanmiz, uni turli metodologik asoslar yordamida bat afsil tadqiq etish kerak bo`ladi.

“Avliyo” so`zi arab tilidan olingen bo`lib, “valiya” fe`lidan yasalgandir. Bu fe`l: yaqin bo`lmoq; boshqarmoq; idora qilmoq kabi ma`nolarni beradi. Bu so`z “valiy” so`zining ko`plik shaklidir. “Valiy” so`zi o`z o`rnida yaqin; homiy; vasiy; Allohning do`sti degan ma`nolarni beradi. Islom dini paydo bo`lar ekan, o`zi bilan ruhiy, jismoniy va aqliy hayotning o`rtasiga tenglikni olib keldi. Demak, inson Islom dinining tasavvurida jism, aql va ruhdan iborat. Mana shu tenglik asosida ana endi tasavvuf ta`limoti shakllanib, vujudga keldi. Biz o`rganadigan tasavvuf Islom negizida shakllangan ruhiy tarbiyadir. Bizga ma`lumki, uning g`oyasi komil insonni tarbiyalashdir. Bunday kamolotga erishgan shayxlarning o`z darajalari va manoqiblari mavjud. Bunday karomatli insonlarni xalq aziz-avliyo, qudsiy nafasli kishilar sifatida alohida e`zozlagan. Bu zotlar atrofdagilar ongi va shuuriga qattiq ta`sir o`tkazganlar va ma`naviyat sultonlari bo`lib maydonga chiqqanlar. Ularning so`zi va harakati, xislati va axloqi hammaga ibrat qilib ko`rsatilgan. Jahonning butunligi, obodonlik va osoyishtalik Parvardigor fayzini yetkazuvchi shu tabarruk zotlarning duosi, xayrli ishlariga vobasta deb qaralgan. Shu asnoda avliyo-anbiyoning merosxo`ri – davomchisi degan aqida shakllangan. Komil insonni tasavvufiy istilohda “avliyo” deyiladi. Biz yuqorida ko`rib chiqqan ma`nolar orasida “Allohning do`sti” ma`nosi aynan o`rganayotgan mavzuyimizni yoritib berishda asos bo`lib xizmat qiladi.

Tasavvuf ta`limoti tarixiga nazar solar ekanmiz, avliyolarga eng boy diyor Turkiston ekanligiga guvoh bo`lamiz. Jumladan Ahmad Yassaviy, Abdulholiq G`ijduvoniy,



Najmuddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Pahlavon Muhammad va boshqalar xalqimizning, dinimizning buyuk iftixorlaridir. Demakki, bu ulug` tuproq, olamshumul alloma, mashhur mutasavvuflarning buyuk va muborak tuprog`idir.

Ana shunday mashhurlardan biri Sulton ul-orifin Xoja Ahmad Yassaviydir. Yassaviy haqidagi dastlabki ma'lumotni, o`z davrining ulug` olimi So`fi Muhammad Donishmand (XII asr), Muhyiddin al-Arabi yozib qoldirgan.¹

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham bu ulug` turk piri haqida shunday so`zlarni bitib qoldirgan: “Ahmad Yassaviy- Turkiston mulkinining shayx ul-mashoyixidir. Maqomoti oliy va mashhur, karomoti mutavoli va nomahsur ermish. Muridu as`hobi g`oyatsiz va shoh-u gadoning irodatu ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish”.²

Shuningdek, bir qator manoqibiy, ilmiy kitoblar borki, ular Ahmad Yassaviyning hayoti, tariqatini yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Muhammad Fuad Ko`prulzodaning “Turk adabiyotida ilk mutasavviflar” asari bu borada nihoyatda nodir asar hisoblanadi. Bu asarni yozishga turtki bo`lgan sababni turk adabiyotshunosi quyidagicha izohlaydi: “Yassaviylik tariqati turkiy xalqlar orasida keng yoyilgan ilk tariqatdir. Aynan shu sababla Ahmad Yassaviy va yassaviya sulukini injá xususiyatlarini ochish - turkiy tasavvufning eng eski, ammo eng yirik qismini kashf etishga olib keladi”.³

Ahmad Yassaviy el orasida avliyo deb ulug`langan, shu bois “Madinada – Muhammad, Turkistonda – Ahmad” degan ovozalar tarqalgan. Ahmad Yassaviy islam ahkomlarini turkiy xalqlar orasida yoyilishiga katta hissa qo`shdi. U turkiy tasavvuf adabiyotida o`ziga xos mакtabga asos soldi. Uning tasavvufiy qarashlari “Hikmatlar” she`riy to`plamida berilgan.

Mustaqillikka erishganimizdan so`ng, Yassaviy shaxsini o`rganish borasida ko`plab ishlar qilina boshladi. Xususan, adabiyotimizda ham bu borada Sa`dulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romani e`tiborga molik asar hisoblanadi. Piri Turkistoniy nomi bilan mashhur Yassaviyning avliyolik karomatlari, muridlari bilan suhbatlari, nafshi poklash, komillikkha erishishda qalb taskin topadigan kafolatli yo`lni tanlash borasidagi yo`l-yo`riqlari haqqoniy tasvirlanganidan, muallifning bu borada ancha mukammal izlanishda bo`lganiga guvoh bo`lamiz.

Yassaviyning buyuk karomatga ega avliyo zot bo`lganligini asarning boshidayoq uchratamiz. Umuman asar davomida esa Ahmad Yassaviyning valiylik kiromini insonlarning hayolidagi fikrini o`qiy olishdek sifati bilan ko`p sahnalarda

¹ So`fi Muhammad Donishmand: “Mir’ot ul-qulub” (Ko`ngillar ko`zgusi”)

² A.Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasi. 611-avliyo t/b

³ F.Koprulu “Turk edebiyatinda ilk Mutasavviflar” 1993.



uchratamiz. Xususan, Shayxning shogirdlaridan biri bo`lgan Sulaymon o`rtasidagi ushbu dialogda bunga guvoh bo`lamiz:

Sulaymon yoshi qirqni qoralagan bo`lsada, hanuz biron sohibjamolning yuzidagi iffat pardasini ochmoq nasib etmagan edi. Bu haqida bot-bot o`ylasa ham, Hazratga ko`ngil yorgani haddi sig`masdi...

Shayxning hayolchan yuzi yorishdi. Tiliga Sulaymonning ikki bayti keldi. Pichirlab o`qidi:

Na xush bu dunyoda Iymon va Qur`on,

Na bo`lg`ay dunyoda Iymondan ortiq!

Mening bu dardimni hech kimsa bilmas,

Agar bilsa, Hakim Luqmondin ortiq!

- Dardingizni bilamiz, - dedi Shayx Sulaymonga ko`z qirini solib, - bil baloyi sobirayni, debdilar. Sabr aylang. Har neki ibtido topdi, intiho topqay.

Sulaymon hijolat bo`ldi. U vatan orzusiga g`arq bo`lib, Shayxni butkul unutibdi. “Shayx ishroq ilmining sohibi kamoli. Savqi tabiiysi ila kishining fikrini bemalol o`qiy oladi, bilmasmiding? Eh, gumroh!”

Asarda Yassaviyning siyoshi haqqoniy qilib tasvirlangan. O`zi tomonidan aytilgan juda ko`p to`rtliklari romanda shogirdlari, ilm ahllari tomonidan aytilgan. Bu Yassaviyning ta`limoti naqadar keng tarqalganidan va uning ilmi ulug`lanishidan dalolat beradi. Yozuvchi ham shu maqsadni ko`zlagan bo`lsa ajab emas:

“- Hojatini chiqarmagan musulmon emas, - dedi Bobo Mochin.

- O`lmang, og`a! Qul Ho`ja Ahmad pirim ham shunday depti. Ul hazratning bir hikmati bor edi. Oldin yurgan yo`limda yodlab yurguchi edim, endi, mana bu taqsirim aytganday qursoq qayg`isi bilan bo`lib... esimdan chiqibdi. - Qorluq boshiga mushtlab-mushtlab qo`ydi. Bobo Mochin tavakkal qilib Shayxning mashhur baytini o`qidi:

Sunnat ermish, kofir bo`lsa berma ozor,

Ko`ngli qattiq dilozordin xudo bezor...

Kofar qo`l sermadi, baland tovushda xitob qildi:

- Shu-shu! Ammo turingiz haybatli bo`lgoni bilan o`zingiz yaxshi odamga o`xshaysizakan. Hazrati Sultonimni yoddan bilarkansiz.”

Romanda Ahmad Yassaviy kamtarona hayot kechirgan, tabiatan yuvosh, kamgap, og`ir fe`lli avliyo obrazida tasvirlangan. Uning hayotidagi kamtarlik ham bunga misol bo`la oladi. Chunki, Yassaviy yog`och o`yib, qoshiq yasab kun kechirar, ro`zg`or tebratar edi. Unga yuborilgan hayr-ehsonlarni muridlariga berib yuborar, o`zi esa, tuzni ham torib ko`rmagan.



“Ahmad Yassaviy” romanida Ahmad Yassaviyning diniy-falsafiy qarashlari, davlat va hokimiyat haqidagi fikr-mulohazalar, ilohiy ishq haqidagi teran mushohadalari asar qahramonlari bilan bo’lgan muloqotlarida, jamiyat hayoti bilan bog’liq amaliy faoliyatida aks etgan. Sa’dulla Siyoyev Ahmad Yassaviy obrazini faylasuf maqomiga yetkazishda turli tarixiy shaxslar va to’qima obrazlardan foydalangan. Tarixiy faktlar va badiiy to’qimalar uyg’unlashib, ijodkorning g’oyaviy-badiiy niyatini amalgalashga xizmat qilgan. O’sha davrlarda ham hasadchi va g’arazli amaldorlar borligini, odamlar bir-birlariga qasd va dushmanliklarini yashirmaydi. Hattoki, shayxning ya’ni Ahmad Yassaviyni ham odamlar oldida mulzam qilgilar, turli o’ymakor savollar berib hammani tahlikaga solgilari keladi. Ammo Yassaviy hazratlarining zakiyligi, hozirjavobligi ularni mag`lub etadi.

“Ahmad Yassaviy” romanida bir necha tarixiy shaxslar obrazining yaratilishi Ahmad Yassaviy obrazini to’laqonli bo’y ko’rsatishiga, shuningdek davr ruhini berishga, ilm-ma’rifatning ko’zga ko’rinmas qudratini namoyon etishga xizmat qilgan. O’z davrining ulug’ insonlari bo’lgan bu tarixiy siymolar o’sha ko’zga ko’rinmas qudrat, tengsiz aql-zakovat evaziga bugun ham avlodlar xotirasida yashamoqdalar.

Jumladan, asarning bosh qahramoni obrazini ochishda ularning ham ishtiroki asosiy o`rin tutgan. Ayniqsa, Hazratning sevimli muridlaridan biri bo’lgan, o`g`lidek muhabbat qo`ygan insoni Qutbiddin obrazi ham asarda muhim rol o`ynaydi.

Qutbiddin asli shoh Sulton Mahmudxonning o`g`li, shahzoda edi. Ammo u shahzodalik baxti taxtidan kechib, darvishlar halqasiga qo`sildi, Yassaviy Hazratlarini pir deb etagini o`pdi. Aynan shu obraz Yassaviylik tariqatining butun ahamiyatini ochib berdi. Sababi, ijodkor Qutbiddin shaxsi orqali pir va murshid munosabatlarini, zikr tushish odobi, tariqat bosqichlari, sohibi dil ya`ni orif bo`lishlikning bosqichlarini, suluk tarkibida bo`lish, hirqaga munosib murid bo`lish kabi eng muhim jihatlarni chuqur tasvirlab beradi. Boshqa qo`shimcha manbalarsiz ham bu asar bilan tanishgan kitobxonda tasavvuf va tariqat borasida ancha tasavvur paydo bo`ladi. Bu Sa`dulla Siyoyevning yozuvchilik mahoratidan darak beradi.

Murid pir dargohiga borgach, birinchi yil odamlar uchun xizmat qiladi. Ikkinchchi yil Allohgga xizmat, uchinchi yil esa faqat qalb muroqabasi bilan mashg’ul bo’ladi. Qalb muroqabasi asosida o’zini g’urur, kibr, rivo, manmanlik, hasad kabi ofatlardan qutqazib, ko’nglini g’afplatdan poklaguncha riyozat chekishini Qutbiddin obrazi orqali yoritib beradi.

Sa`dulla Siyoyev Yassaviy hazratlarning avliyo maqomiga erishgan siymo ekanligini, shuningdek, ushbu satrlarida bizga bayon qiladi:



“Tasavvuf tamallariga ko`ra, inson ko`ksida beshta nuqta, besh nur bor: ular latifai qalb, latifai ruh, latifai sir, latifai xafiy, va latifai axfo, ya`ni bag`oyat maxfiy nur deb ataladi. Bu nurlarning rangi, jilosi turli xil. So`fiy umr bo`yi o`sha besh nur ishqida zahmat chekishi kerak. Beshinchi nurga sazovor kimsa – alloma, avliyo, qutb ul-aqtob, ya`ni ruhiy olam yaktosi darajasiga erishadi. Nuri tajalliy deb atalmish bu nurga Shayx ul-mashoyix kabi kamdan-kam kishilargina muyassar bo`ladi”.

Shuningdek, asarda Yusuf Hamadoniyning ikkinchi xalfasi bo`lgan, fanofilloh maqomiga yetgan Abduholiq G`ijduvoniyning ham ishtiroki asardagi nafaqat Yassaviy obrazi, balki tariqatining o`ziga xos jihatlarini ham ohib berishga xizmat qiladi.

Asarning syujeti Hazratning Ka`ba ziyyaratiga ketish tadorigi bilan boshlanar edi. Sayohat davomida Yassaviy qancha-qancha mushkulotlarga yechim topdi, bir yigitning g`aybdan tug`ilgan o`g`lining sirini mo`jizaviy tarzda ochdi, tarixiy voqealar sahnasida bevosita ishtirok etdi. Sulton Mahmudxon, Sulton Sanjar, Alouddin Otsiz kabi tarixiy shaxslar obrazlarini ham yoritdi va to`ldirdi. Marvga qilgan safaridagi hodisa sabab, uning Haj ziyyorati amalga oshmadi, ammo u yerdagi karomati bois Haj savobini olib, yurtiga qaytadi.

Ushbu romandagi avliyo obrazining talqinini ko`rar ekanmiz, mumtoz adabiyotimiz namunalarida yoinki ko`plab boshqa davr adabiyotlarimizda eng ko`p duch kelgan valiy obrazi Xizr alayhissalomga to`xtalmay bo`lmaydi. Boisi, ushbu romanda ham Xizr bobo Yassaviyni qo`llab-quvvatlovchi, unga g`oyibdan xabarlar keltiruvchi, shuningdek, ikkilangan vaziyatlarida qalbiga hotirjamlik nurini sochuvchi valiy sifatida tasvirlangan.

Yassaviy hikmatlar yozib, tasavvufning otashin kuychisi bo`lgani barchaga ma`lum. Uning hikmatlarida ilohiy ishq ulug`lanadi. Sa`dulla Siyoyev Yassaviyning hikmatlarini o`z asarida keltirmasligi romanning ta`sirchan va haqqoniy chiqishiga to`sinq bo`lardi. Ammo yozuvchi hikmatlarni kerakli o`rinlarda nihoyatda chiroyli talqin etishga erishadi: u asosan, Yassaviy to`rtliklarini muridlar, yo oddiy xalq tilidan bayon qiladi. Bu esa shayxning qanchalar sodda va ravon tilda hikmat bitganining yorqin dalili bo`lib xizmat qiladi.

Muxtasar olib aytadigan bo`lsam, "Ahmad Yassaviy" romani nafaqat Sa`dulla Siyoyev ijodining gultoji, balki zamонави о'zbek nasridа yuksak badiiy saviyada yozilgan roman desak, mubolag'a bo`lmaydi.

Ijodkorning bugungi avlod ma'naviy qiyofasini yuksaltirish yo'lida tarixiy mavzuga murojaat etgani, tarixiy voqeа-hodisalar fonida qahramonning obrazini, uning ruhiy



dunyosini nihoyatda chiroyli yoritib bergani barcha adabiyot ixlosmandlari uchun quvonarlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohim Haqqul. Ahmad Yassaviy. Toshkent– G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. 2001
2. Köprülü F. Türk edebiyatında ilk mutasavvıflar. 7 baskı / F. Köprülü. – Ankara, 1991.
3. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti. Ilmiy-tanqidiy, badilar. –T.: G‘. G‘ulom, 2006.
4. S.Siyoyev. Ahmad Yassaviy // O’zbekiston. – Toshkent, 2012.

